ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 29.05.2026 · Accepted: 24.08.2026 · Published: 04.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/9cgbtn48

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

Atoqli bastakor Nabijon Hasanov ijodida amaliy musiqa janri (“Bulbul bolam” radiospektakli misolida)

(The Genre of Applied Music in the Works of the Renowned Composer Nabijon Hasanov

(A Case Study of the Radio Play “Bulbul bolam”))

Navroza Tursunaliyeva

Department of Uzbek Music History
State Conservatory of Uzbekistan
100027, Botyr Zakirov, 1
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: navrozatursunaliyeva3@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada amaliy musiqaning o‘zbek musiqa madaniyatida shakllanishi va uning bastakor uslubini aniqlashdagi ahamiyati tadqiq etiladi. Amaliy janrlar teatr, radio va kino musiqasini qamrab olishi, ularda musiqa sahna yoki ekran asarining dramaturgik tarkibiy qismi sifatida shakllanishi asoslanadi. Ishning obyekti sifatida bastakor Nabijon Hasanovning 1940-1950-yillardagi sahna va radio janrlaridagi faoliyati olingan bo‘lib, uning “Bulbul bolam” (1947) radiospektakliga yozgan musiqasi tahlil qilinadi. Tahlil asarning ladi, o‘lchovi, shakli, fakturasi va dramaturgik yechimlariga yo‘naltirilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bastakor xalq ohanglari va mumtoz musiqa an’analariga tayanib, ularni radio janrining o‘ziga xos talablariga moslashtirgan: musiqa vizual vositalar o‘rnini bosib, obraz va milliy koloritni faqat tovush orqali ochib beradi. Maqolada bastakor uslubining barqaror hamda janrga qarab o‘zgaruvchan belgilari ajratilib, amaliy janr uslub shakllanadigan ijodiy laboratoriya ekani asoslanadi. Ishning ilmiy ahamiyati Nabijon Hasanov merosining kam o‘rganilgan radiospektakl uchun bastalangan asarlarini yoritishda namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: amaliy janr, kinomusiqa, bastakor uslubi, Nabijon Hasanov, “Bulbul bolam”, radiospektakl musiqasi, lad-parda, vazn-usul, musiqiy dramaturgiya, mualliflik dastxati.

Abstract

This article examines the formation of applied music in Uzbek musical culture and its significance for defining a composer’s style. It shows that applied genres encompass theatre, radio, and film music, and that in these genres music takes shape

as a dramaturgical component of a stage or screen work. The object of study is the activity of the composer Nabijon Hasanov in theatrical and radio genres during the 1940s–1950s, with an analysis of his music for the radio play Bulbul bolam (1947). The analysis focuses on the work's mode, meter, form, texture, and dramaturgical solutions. The findings indicate that, relying on folk melodies and classical musical traditions, the composer adapted them to the specific demands of the radio genre: music, replacing visual means, conveys character and national color through sound alone. The article identifies the stable and genre-dependent features of the composer's style and argues that the applied genre serves as a creative laboratory in which style takes shape. The scholarly significance of the study lies in illuminating the little-studied radio-play dimension of Nabijon Hasanov's legacy.

Keywords: applied genre, film music, composer's style, Nabijon Hasanov, Bulbul bolam, radio play music, modal-scale structure (lad-parda), metro-rhythm (vazn-usul), musical dramaturgy, authorial hallmark.

Аннотация

В статье исследуется становление прикладной музыки в узбекской музыкальной культуре и её значение для определения стиля композитора. Обосновывается, что прикладные жанры охватывают театральную, радио- и киномузыку и что в них музыка формируется как драматургическая составляющая сценического или экранного произведения. Объектом исследования стала деятельность композитора Набиджона Хасанова в театральных и радиожанрах 1940–1950-х годов; анализируется его музыка к радиоспектаклю "Бульбуль болам" (1947). Анализ направлен на лад, размер, форму, фактуру и драматургические решения произведения. Результаты показывают, что композитор, опираясь на народные напевы и традиции классической музыки, адаптировал их к специфическим требованиям радиожанра: музыка, заменяя визуальные средства, раскрывает образ и национальный колорит исключительно средствами звука. В статье выделяются устойчивые и зависящие от жанра признаки стиля композитора и обосновывается, что прикладной жанр является творческой лабораторией, в которой формируется стиль. Научная значимость исследования состоит в освещении малоизученного радиоспектакльного направления наследия Набиджона Хасанова.

Ключевые слова: прикладной жанр, киномузыка, стиль композитора, Набиджан Хасанов, Бульбуль болам, музыка к радиоспектаклю, лад и звукоряд (лад-парда), метроритм (вазн-усул), музыкальная драматургия, авторский почерк.

O‘zbek musiqa madaniyati taraqqiyoti xalq ijodiyoti, mumtoz janrlar, konsert-ijrochilik amaliyoti va mustaqil badiiy asarlar yaratilishi bilan cheklanib qolmay, balki teatr, radio, kino hamda televideniye uchun bastalangan kuylar ham milliy musiqa merosining muhim qatlamini tashkil etadi. Bu kuylar mustaqil badiiy hodisa sifatida emas, sahna yoki ekran asari bilan uzviy bog‘liq holda yashaydi. Bunday musiqa sahna yoki ekran asarining dramaturgik tarkibiy qismi sifatida shakllanib, voqealar rivojini, qahramonlarning ruhiy holatini va asar muhitini ifodalashga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda “amaliy musiqa”, “kinomusiqa”, “mediamusiqa”, “funksional musiqa”, “bezak musiqasi” va “kompilyativ musiqa” [1, 6-b.] kabi tushunchalar uchraydi, ammo ularning mohiyati bitta: musiqa amaliy vazifani bajaradi. Amaliy janrlarda kompozitorlar va bastakorlar uslubi avtonom musiqadagidan farqli ravishda, avvalo ish metodida, ifoda vositalarini tanlashda va dramaturgik yechimlarda namoyon bo‘ladi. Amaliy janrlar tom ma’noda ikki asosiy yo‘nalishga ega: sahnaviy asarlar, ya’ni teatr, musiqali drama hamda vizual va audiovizual turlar, ya’ni radio, kino va televideniye musiqasi. Sahnaviy yo‘nalish xronologik jihatdan avval shakllandi va amaliy janrlar uchun o‘ziga xos ijodiy laboratoriya vazifasini o‘tadi. Ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda musiqali drama XX asrning birinchi choragida shakllana boshladi va bu jarayonda milliy musiqa merosi hal qiluvchi o‘rin tutdi. Xalq ijodi namunalari va mumtoz janrlar, xususan maqomlar yangi janrning asosi bo‘ldi. Jumladan, G‘ulom Zafariyning “Halima”si o‘zbek musiqali dramasining ilk asari sifatida e’tirof etiladi, undan keyin “Farhod va Shirin”, “Ichkarida” kabi asarlar paydo bo‘ldi. 1929-yilda o‘zbek davlat musiqali teatri tashkil etilgach, janr uch bosqichda rivojlandi: milliy merosga tayangan dastlabki davr, o‘zbek bastakorlarining rus kompozitorlari bilan hamkorlik davri va mahalliy kompozitorlar mustaqil ijod qilgan davr. Ushbu davrda faoliyat yuritgan ko‘plab kompozitorlar ijodi musiqali drama janrining boyishiga salmoqli hissa qo‘shdi. Jumladan, zabardast vakillari bo‘lmish Y.Rajabiy, T.Jalilov, M.Ashrafiy,

M.Burxonov, I.Akbarov va boshqa ko‘plab kompozitorlarning ijodiy faoliyati milliy musiqali drama taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ularning asarlari orqali ushbu janrda mavzu va ifoda vositalarining kengayishi, janr xilma-xilligi va milliylikning chuqur ifodalanishi kuzatiladi. Yuqorida nomlari zikr qilingan kompozitorlar tomonidan yozilgan musiqali dramalarda milliy meros o‘rni katta ahamiyatga egaligiga guvoh bo‘lamiz.

Vizual yo‘nalish esa keyinroq shakllandi: O‘zbekistonda kinomusiqa boshqa mamlakatlardagi kabi bosqichma-bosqich rivojlandi. Uning dastlabki namunalaridan biri Kamil Yarmatovning “Alisher Navoiy” (1947) filmi bo‘lib, u tarixiy-biografik janrda yuqori kasbiy me’yorni o‘rnatdi. Bu filmda kompozitorlar folklorga tayanib simfonizatsiya yo‘lini tanladi, epik xarakter va xalq ohanglari esa tarixiy davr hamda milliy koloritni ochishga xizmat qildi. Rus kompozitori D.Shostakovich an’anasidagi simfonik tafakkur keyinchalik o‘zbek kinomusiqasida ham davom etdi. Mazkur yo‘nalish ham uch bosqichda rivojlandi. Dastlab rejissyorlar M. Burxonov va M. Leviyev kabi tanilgan kompozitorlarni jalb qildi. 1960-yillar boshida I. Akbarov, A.Ergashev, A. Malaxov, R. Vildanov va E. Shiryayev kabi yosh mualliflar kirib keldi. 1960-yillar oxiridan 1990-yillargacha esa kinematografiya yuksalishi bilan akademik yo‘nalishdagi professional kompozitorlarni taklif etish amaliyoti qaror topdi, chunki rejissyorlar filmning umumiy konsepsiyasiga mos musiqiy dramaturgiyaga ehtiyoj sezdi. Bu jarayonda eng ko‘zga ko‘ringan kompozitorlar R. Vildanov (150 dan ortiq filmga musiqa muallifi), A. Malaxov va F. Yanov-Yanovskiy bo‘lib, tadqiqotchilar ularni o‘zbek kinomusiqasining “uch ustuni” deb baholaydi. Muhimi, amaliy janrlar kompozitor va bastakorlar uchun musiqiy teatr sari yo‘l ochuvchi ijodiy laboratoriya vazifasini o‘tadi va ularning o‘ziga xos uslubi aynan shu sohada shakllandi.


Aynan shu ikki yo‘nalish kesishgan muhitda bastakor Nabijon Hasanovning o‘rni alohida e’tiborga molik. Uning merosi amaliy janrlarning xronologik jihatdan

ham, ijodiy jihatdan ham dastlabki bosqichi, ya’ni musiqiy teatr bilan chambarchas bog‘liq. Amaliy janrlar bevosita musiqiy teatrga eltuvchi o‘ziga xos ijodiy tajriba vazifasini bajarganligi sababli, bastakor ijodini tahlil qilishni aynan shu yo‘nalishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, Nabijon Hasanov merosining asosiy qismi faqat shu janrga tegishli, deb bo‘lmaydi. Uning ijodida sahna uchun yozilgan asarlar hamda “vizual” turlarga xos namunalar ma’lum bir qismnigina tashkil etadi.

Ijodining 1940–1950-yillari bu janrdagi samarali faoliyat davri bo‘ldi. Ushbu davrda bastakor Samarqand musiqali drama teatri uchun “Farhod va Shirin”, “Gulsara”, “G‘unchalar”, “Tog‘ qizi”, “Nasriddin Afandi”, “Shahar o‘t ichida” kabi sahna asarlariga musiqa bastaladi. Bu asarlar orqali u teatr musiqasi sohasida muhim tajriba orttirdi, shuningdek, xalq musiqasi an'analarini sahna san’ati bilan badiiy jihatdan uyg‘unlashtirish yo‘lida jiddiy ijodiy yutuqlarga erishdi. Mazkur davrda hammualliflikda sahnalashtirilgan “O‘zbekiston qilichi” dramasi alohida o‘rin tutadi. Asar yozuvchilar S. Abdulla, H. Olimjon, O. Uyg‘un, N. Pogodin hamda kompozitor va bastakorlar T. Sodiqov, M. Burxonov, S. Veynberg, T. Jalilov, N. Hasanov, A. Klyumanov hamkorligida yaratilgan. Bastakor ijodida shuningdek “Gulxan” (T. Sodiqov bilan hamkorlikda), “Taqdir”, “Oromgul”, “Vafo va makr” hamda urushdan keyingi yillarda yozilgan “Yaylov tongi” va “Cho‘l va daryo qizi” (bastakorning so‘nggi spektakli) kabi sahna asarlari ham muhim o‘rin egallaydi. Urush sharoitida yaratilgan asarlar xalq musiqasini sahna san’ati bilan birlashtirish, tomoshabinga kuchli ruhiy ta’sir ko‘rsatish va g‘alabaga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga qaratilgan edi. 1947-yildan boshlab Nabijon Hasanov O‘zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg‘ulari orkestrida sozanda sifatida faoliyat yuritish bilan birga “Bulbul bolam”, “Tasadduq”, “Parvona bo‘libman”, “Qizgina”, “Xush kelding” kabi radiospektakllar uchun musiqiy asarlar yaratdi. Radio janrida musiqa vizual vositalar o‘rnini bosib, tinglovchi tasavvurini shakllantirishda alohida

ahamiyat kasb etadi. Bu bastakordan teatr musiqasidan farqli, yangicha dramaturgik yondashuvni talab qildi. Shu boisdan bastakorning yana bir qirrasini kashf qilish maqsadida “Bulbul bolam” radiospektakli uchun bastalagan asarini imkon qadar tahlil qilishga jazm qildik[1].


Mazkur asar 1947-yilda radiospektakl uchun bastalangan musiqiy asardir. Demak, yangi janrdagi asarlar yaratishda o‘zbek musiqa merosiga, xususan mumtoz musiqa ohanglariga murojaat qilish bastakor Nabijon Hasanov ijodining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tahlil qilinayotgan asarda bu tamoyil jo‘rlik qatlamida namoyon bo‘ladi: unda mumtoz musiqaga xos ufar usulining bir ko‘rinishi jo‘rlik vazifasini bajaradi[2]:




Ushbu jo‘rlik milliy koloritni vizual vositalar mavjud bo‘lmagan radio janrida faqat tovush orqali yaratishga xizmat qiladi. Asar 6/8 o‘lchovda, d eoliy ladida, o‘rtacha sur’atda yozilgan bo‘lib, ohang diapazoni duodetsima (birinchi oktava d tovushidan ikkinchi oktava a gacha) oralig‘ini qamrab oladi. Asar ikki taktli muqaddima bilan boshlanadi. Muqaddimaning vazifasi faqat kirishdan iborat emas: u keyingi qismlarga o‘tishda bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida ham qaytadi:

[1] Jabborov A. O‘zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari (Ma’lumotnoma) to‘ldirilgan 2-nashr. T., 2018 yil nashr etilgan kitobning 393-betida asar “Bo‘l-bo‘l bolam” shaklida berilgan, ammo bastakorning oilaviy arxivida saqlanayotgan qo'lyozma sarlavhasida “Bulbul bo‘lam” deb yozilgan. Qo‘lyozma varianti maqbul deb hisoblandi.

[2] Odatda bastakor asarlarining musiqiy jo‘rligi bir necha kompozitorning hamkorligida yaratilgan, biroq ushbu asardagi hamkor muallif mavjud manbalar asosida aniqlanmadi. Bu esa asarni tahlil qilishda bastakor ulushini faqat musiqiy matn xususiyatlari orqali baholashni taqozo etadi.




Asarning yetakchi mavzusi to‘rt taktli bo‘lib, butun qurilish shu mavzuga asoslanadi. Asar mavzusini xalq kuylaridan tanish bo‘lgan ohanglar tashkil qiladi. Bu intonatsiyalar asarga milliy ruh, tanishlik tuyg‘usini olib kiradi. Uning pasayuvchi sekundali intonatsiyalari va tayanch tovushlarni aylanib o‘tish usuli asarning xarakterli belgilarini ifodalaydi. Hajm jihatidan ixcham va soddaligi sababli u yodda tez qoladi, bu esa radio janri uchun muhimdir, chunki tinglovchi tasvir bilan emas, faqat eshitish xotirasiga tayanadi. Ohangga cho‘zilgan akkordlar hamrohlik qiladi, mavzu rivojlanishi esa ovozlararo elementlar va polifonik usullar hisobiga amalga oshadi:




Asar band va naqorat tuzilishiga ega. Qismlar ketma-ketligi quyidagicha: ikki taktli kirish, band qismini ifodalovchi asosiy mavzu, so‘ng ikki takt bog‘lovchi bo‘lakdan tashkil topgan bo‘lib mazkur bo‘lak naqorat qismining boshlanishiga zamin yaratadi. Bandning ikkinchi bo‘lagida d eoliy ladidan d doriy ladiga keskin og‘ish yuz beradi. Bu o‘tish bilan bir vaqtda jo‘rlik partiyasida uch ovozli polifonik

figuratsiya paydo bo‘ladi, u mazmunni to‘ldiruvchi qo‘shimcha ifoda qatlami vazifasini bajaradi:




Musiqiy dramaturgiyaning markaziy g‘oyasi onaning farzandiga baxt tilashidir. Mavzu irodali ichki kuch va mehrni birlashtirib, nasihatomuz qo‘shiqqa xos unsurlarni o‘z ichiga oladi. Qo‘shiqchilikka xos jo‘shqin, aniq, lo‘nda sur’at, prima va tertsiya harakatlari hamda ko‘tarilishlar mavzuning ifodaliligini kuchaytiradi. Akkord-garmonik faktura ohang ifodasini chuqurlashtiradi. Musiqashunos N. Yanov-Yanovskayaning nazariy talqiniga ko‘ra, musiqa harakat va mazmun nisbatiga qarab uch xil vazifani bajaradi. Ulardan ikkinchisi, ya’ni umumlashtiruvchi (ochib beruvchi) vazifa qahramonning ichki holati, kayfiyati va voqealarning yashirin ma’nosini yoritishga xizmat qiladi. Tahlil qilinayotgan asar aynan shu vazifaga mos keladi: musiqa fon bilan cheklanmasdan, spektaklning obrazli qiyofasini shakllantiradi. Shu bilan birga muallif musiqa “ko‘rinmas” bo‘lib, faqat umumiy emotsional muhitni, ya’ni koloritni yaratishi kerakligini ta’kidlaydi. Bu talab radiospektaklda ayniqsa dolzarb, chunki unda vizual komponent yo‘q va kolorit faqat eshitish idroki orqali yaratiladi.

Ona mavzusi keng nafasda bayon etilgan. Tertsiya harakati orqali mavzu yadrosi rivojlanadi va asar oxirigacha jo‘shqin xarakterni saqlagan holda cho‘ziq kuy chizig‘iga aylanadi. Matn-dramaturgik jihatdan birinchi bandning birinchi va ikkinchi bo‘lagida ona farzandiga nasihat qiladi: “Kel bolam sumbulginam, gulshanginam bo‘l shodimon, sen uchun bog‘larni gul birla sotdi bog‘bon”:




Asarning birinchi bandi tayanch pardadan seksta pastga tushish bilan yakunlanadi. Bu pasayish naqorat qismi boshlanishiga intonatsion zamin yaratadi, ya’ni band va naqorat o‘rtasida bog‘lovchi o‘tish vazifasini bajaradi. Naqoratda esa asosiy mavzu boshlanadi. Farzand obrazi bu yerda “soqov” obraz sifatida beriladi, ya’ni faqat onaning nutqi orqali gavdalanadi. Ona va farzand bir xil g‘oyaviy holatda turgan musiqiy siymo sifatida talqin etilgan. Naqorat qismi “Bulbul bolam, sayra, gul shoxida yayra, shakar bolam, sayra, gul shoxida yayra” musiqiy-she'riy jumlasi bilan bayon etiladi. Matnda farzand bulbulga qiyoslanadi va unga quvonch tilanadi. Shu tariqa birinchi bandning nasihatomuz mazmuni naqoratda yorqin, sevinchli ifodaga aylanadi:



Naqorat fakturasining o‘ziga xosligi shundaki, bastakorning kuyidagi har bir notani saqlagan holda fortepiano partiyasida uni gomofon-garmonik (akkordli) ko‘rinishda beradi. Ya’ni kuy va jo‘rlik bir-biridan ajralmaydi, akkordli faktura ohangning o‘zini kuchaytiradi, bu esa ohangning aniq eshitilishini ta’minlaydi. Naqorat ikki bo‘lakdan iborat: birinchi bo‘lak ritmik jihatdan asosiy mavzu bilan bir

xil bo‘lib, undan seksta intervalicha pastda yangraydi. Bu mavzuning ritmik o‘zgarmagan holda boshqa balandlikka ko‘chirilishidir. Ikkinchi bo‘lakda esa asosiy mavzu ohangi o‘z balandligida qaytib keladi, ya’ni band qismi bir marta takrorlanib, xotima vazifasini bajaradi. Fortepianoda mavzu pog‘onama-pog‘ona harakatlar bilan to‘ldirilgan holda takrorlanadi. Bu usul orqali asar ohangi yana bir bor ta’kidlanadi va yakunigacha eslatib turiladi. Naqorat tayanch pardada yakunlanadi:



Demak, naqoratda bastakor uch vositadan foydalangan: ritmik izchillik bilan transpozitsiya, mavzuning asl balandlikda qaytishi (repriza xarakterida) va akkordli fakturaning kuyni kuchaytirishi. Bu vositalar asarning ixcham, yodda qoluvchi xarakterini saqlab, asosiy siymo bo‘lgan ona mavzusini oxirigacha izchil olib boradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ish natijalari amaliy musiqani o‘zbek musiqa madaniyatida mustaqil (avtonom) musiqaga nisbatan ikkinchi darajali hodisa emas, balki bastakor uslubi shakllanadigan ijodiy laboratoriya sifatida ko‘rish mumkin ekanini ko‘rsatdi. Amaliy janrlarda uslub yozuv texnikasi darajasida emas, ish metodi, ifoda vositalarini tanlash va musiqaning dramaturgik vazifasini hal etish darajasida namoyon bo‘ladi. Shu sababli Nabijon Hasanov ijodini sahna va radio janrlari kesimida o‘rganish uning bastakorlik individualligini aniqlashning metodologik jihatdan asosli yo‘li hisoblanadi.

Birinchidan, amaliy musiqaning tarixiy shakllanishi milliy musiqiy merosga tayanish tamoyili bilan belgilanadi. O‘zbek musiqali dramasi xalq ijodi namunalari va maqom janrlari zaminida vujudga kelgan, keyinchalik rus kompozitorlari bilan

hamkorlik va mahalliy kompozitor hamda bastakorlarning mustaqil ijodi bosqichlarida rivojlangan. Vizual yo‘nalish esa rejissyorlarning filmning umumiy konsepsiyasiga mos musiqiy dramaturgiyaga ehtiyoji ortgani sari professionallashgan. Har ikki yo‘nalishda xalq intonatsiyalari va qo‘shiq shakli qahramon xarakterini ochishning asosiy vositasi bo‘lgan. Nabijon Hasanov ijodi 1940-1950-yillarda aynan shu an’ana doirasida, Samarqand musiqali drama teatri va radio janrlarida shakllangan.

Ikkinchidan, “Bulbul bo‘lam” (1947) radiospektakli musiqasi tahlili bastakorning uslubiy tamoyilini ko‘rsatdi: u an’anaviy xalq va mumtoz janr kanonini saqlab, uning ayrim ifoda vositalarini (lad, faktura, shakl) mualliflik yechimi bilan qayta ishlaydi. Asarda mumtoz ufar usuli jo‘rlik vazifasida qo‘llangan, xalqona ohanglarga asoslangan ixcham band-naqorat shakli esa modal o‘tish va fakturaviy boyitish orqali ifodalilikka erishgan. Radioda tasvir yo‘qligi sababli milliy kolorit va obrazning ichki holati faqat tovush orqali ochiladi, ya’ni musiqa fon emas, ochib beruvchi dramaturgik vazifani bajaradi. Natijada milliy asos mustahkam, mualliflik izi esa aniq bo‘ladi. Demak, amaliy musiqa bastakor Nabijon Hasanov uchun alohida soha emas, balki uslubi shakllanadigan ijodiy laboratoriyadir.

Uchinchidan, tahlil qilingan asar misolida ijodkor uslubining ikki qatlami ajratildi:

Barqaror belgilar: xalq va mumtoz janrga tayanish, aniq shakl, ohangning ravshanligi va yodda qolishi, janr talabiga mos dramaturgik mantiqning mavjudligi.

Janrga qarab o‘zgarishi mumkin bo‘lgan belgilar: lad tanlovi, faktura va ijrochilar tarkibi. Bu uslub qolip emas, janr talabiga moslashuvchan, ammo an’anaviy asosga tayanuvchi ekanini ko‘rsatadi: bastakor an’anani buzmasdan, uni zamonaviy dramaturgik talablar bilan uyg‘unlashtirib yangilaydi.

Ishning ilmiy ahamiyati bastakor ijodining kam o‘rganilgan qirrasini, ya’ni radiospektakl janridagi uslubiy xususiyatlarini ochib berishda, shuningdek amaliy janrni uslub shakllanadigan maydon sifatida talqin etishdadir. Bastakorning teatr musiqasi va boshqa radiospektakllarini qiyosiy tahlil qilish hamda aniqlangan belgilarni bir nechta asar notasi misolida tekshirish istiqbolli yo‘nalishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ганиханова, Ш. Прикладные жанры в контексте формирования национального стиля в творчестве композиторов Узбекистана: монография / Ш. Ганиханова. – Ташкент, 2021.
2. Jabborov, A. O‘zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari: ma’lumotnoma / A. Jabborov. – To‘ldirilgan 2-nashr. – Toshkent, 2018.
3. Jabborov, A. Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarning ijodiyotida / A. Jabborov. – Toshkent, 2000.
4. Янов-Яновская, Н. Музыка узбекского кино / Н. Янов-Яновская. – Ташкент, 1969.
5. Янов-Яновская, Н. Узбекская музыка и XX век / Н. Янов-Яновская. – Ташкент, 2007.

References

1. Ganikhanova, Sh. *Prikladnye zhanry v kontekste formirovaniya natsional’nogo stilya v tvorchestve kompozitorov Uzbekistana [Applied Genres in the Context of Forming a National Style in the Works of Uzbekistan’s Composers].* Tashkent, 2021. (in Russian)
2. Jabborov, A. *O‘zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari [Composers, Bastakors, and Musicologists of Uzbekistan].* 2nd ed., revised and expanded. Tashkent, 2018. (in Uzbek)
3. Jabborov, A. *Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarning ijodiyotida [Musical Drama and Comedy Genres in the Works of Uzbekistan’s Composers].* Tashkent, 2000. (in Uzbek)
4. Yanov-Yanovskaya, N. *Muzyka uzbekskogo kino [Music of Uzbek Cinema].* Tashkent, 1969. (in Russian)
5. Yanov-Yanovskaya, N. *Uzbekskaya muzyka i XX vek [Uzbek Music and the 20th Century].* Tashkent, 2007. (in Russian)